



UDC:(UO'K, УДК):81' 44)

Rajab BOBOKALONOV,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: r.o.bobokalonov@buxdu.uz

BuxDPI dotsenti, PhD R.Achilova taqrizi asosida

MONOSEMANTIC AND POLYSEMANTIC STUDY OF MEDICAL TERMS

Annotation

This article focuses on the analysis of monosemy (single meaning) and polysemy (multiple meanings) of medical terms used in French and Uzbek. The study examines the semantic structures of medical terms, their meaning variations depending on context, and the common and distinctive characteristics in both languages. The obtained results are crucial for ensuring the precise use of medical terminology and avoiding semantic errors.

Key words: Medical terminology, monosemy, polysemy, French language, Uzbek language, semantic analysis.

МОНОСЕМАНТИЧЕСКОЕ И ПОЛИСЕМАНТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу моносемии (однозначности) и полисемии (многозначности) медицинских терминов, используемых во французском и узбекском языках. В исследовании рассматриваются семантические структуры медицинских терминов, их изменение в зависимости от контекста, а также общие и специфические характеристики в обоих языках. Полученные результаты имеют важное значение для точного использования медицинской терминологии и предотвращения смысловых ошибок.

Ключевые слова: Медицинская терминология, моносемия, полисемия, французский язык, узбекский язык, семантический анализ.

TIBBIY TERMINLARNING MONOSEMIK VA POLISEMIK TADQIQI

Annotatsiya

Ushbu maqola fransuz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan tibbiy terminlarning monosemiya (bir ma'noli) va polisemiya (ko'p ma'noli) xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda tibbiy terminlarning semantik strukturalari, ularning kontekstga qarab ma'no o'zgarishi va ikki tildagi umumiy va o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi. Olingan natijalar tibbiy atamalarning aniq qo'llanilishi va ma'noli xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Tibbiyot terminologiyasi, monosemiya, polisemiya, fransuz tili, o'zbek tili, semantik tahlil.

Kirish. Tibbiyot terminologiyasi har qanday tilda ilmiy va amaliy nutqning muhim qismidir. Tibbiy atamalar orasida monosemik va polisemik so'zlarning o'zini alohida ahamiyatga ega. Monosemik terminlar faqat bitta aniq ma'noni ifodalasa, polisemik terminlar bir nechta kontekstual ma'nolarga ega bo'lib, ularni to'g'ri tushunish tibbiy amaliyotda juda muhimdir. Fransuz tibbiyot terminologiyasi xalqaro miqyosda standartlashtirilgan va ko'plab terminlari lotin va yunon tillaridan olingan. O'zbek tibbiyot terminologiyasi esa arab, fors va rus tillaridan kirib kelgan atamalarga asoslanadi. Har ikki til terminologiyasida monosemik va polisemik atamalarining ko'p miqdorda qo'llanilishi kuzatiladi, ammo ularning semantik o'zgarishlari til xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Maqola xususan, fransuz va o'zbek tillaridagi tibbiy terminlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilib, monosemik va polisemik terminlarning ma'no chegaralarini aniqlashga qaratilgan. Maqola shuningdek, ikki til o'rtasidagi terminologik xususiyatlarni taqqoslab, ularning semantik murakkabliklarini yoritadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotda asosiy ilmiy manbalar sifatida fransuz va o'zbek tillariga oid tibbiy lug'atlar, ilmiy maqolalar va nashrlar o'rganildi. Xususan, Larousse médical va Dictionnaire de termes de médecine Garnier-Delamaré kabi tibbiyot lug'atlari fransuz tilidagi terminlarning ilmiy aniqligini va ularning tarixiy ildizlarini tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, Azimjon Qosimovning Ruscha-o'zbekcha-lotinch farmasevtik terminlar lug'ati hamda Yo'lqin To'raqulovning Tibbiyot qomusi lug'ati kabi lug'atlar o'zbek tilidagi terminlarning kelib chiqishini va ularning xalqaro tibbiyot terminologiyasi bilan uyg'unligini tahlil qilishda asosiy manbalar bo'ldi. Ayniqsa, Jan Dyubuaning Dictionnaire étymologique et historique du français asari fransuz terminologiyasining yunon-lotin ildizlariga asoslangan monosemik xususiyatlarini ochib beradi. Tadqiqot davomida

aniqlangan muhim jihatlardan biri shuki, polisemik terminlar tarjima va muloqotda aniq kontekst asosida talqin qilinmasa, bu tibbiyotdagi xatolarga olib kelishi mumkin. Bu holatni terminshunos olim Viktor Blum o'zining "Frangkon Robertsning - tibbiy shartlari ularning kelib chiqishi va tuzilishi" nomli maqolasida keng yoritgan bo'lib, terminlarning kelib chiqishi va ularning turli tillarda ma'nosini saqlab qolish muhimligini ta'kidlaydi [1]. Shuningdek, J.H. Dirx tomonidan taqdim etilgan tahlillarda polisemik terminlarning tibbiyot terminologiyasidagi murakkabligi va bu murakkablikni yengib o'tish usullari ochib berilgan [2]. Fransuz tadqiqotchilaridan Paskal Bushe fransuz tibbiyot terminologiyasining monosemik tuzilmasi tibbiy kommunikatsiyada aniqlik va tushunarlilikni ta'minlashda muhim rol o'ynashi [3] ta'kidlangan. Uslubchi, O.T. Abdusoyiqevich ta'kidlaganidek, ".....polisemiya til resurslarini samarali ishlatishga va yangi tushunchalarni ifodalash uchun mavjud so'zlardan foydalanishga imkon beradi. Shu bilan birga, u ma'lumot almashishda aniqlikni ta'minlash uchun muayyan choralarni ko'rishni talab qiladi. Polisemiyaning asosiy xususiyatlari orasida so'zlarning kontekstga bog'liq ravishda turlicha" [4] ma'nolar kasb etishi mumkinligidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot fransuz va o'zbek tillaridagi tibbiy terminlarning monosemik va polisemik xususiyatlarini lingvistik tahlil qilishga asoslangan. Tadqiqot ikki tilning terminologiyasini taqqoslash orqali, ularning ilmiy va amaliy tibbiyotda ishlatilishidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratildi. Monosemik terminlar bir ma'noli bo'lib, aniq diagnostika va davolashda ishlatiladi. Polisemik terminlar esa matnga qarab turli ma'nolarda qo'llanilib, tarjimada murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Tibbiyotda monosemik terminlar aniq va mukammal ma'no saqlab qolish jihatidan alohida ahamiyatga ega. Ular diagnostika va davolash jarayonida aniq

tushunchani ifodalash uchun ishlatiladi. Fransuz va o'zbek tillarida tibbiyot terminlari orasida monosemik atamalar xalqaro miqyosda keng qo'llaniladi va ma'noda farqlanishlarga yo'l qo'ymaydi. Masalan, fransuz tilida *anatomic*, *chirurgie* va *cardiologie* kabi atamalar lotin va yunon ildizlaridan kelib chiqib, bitta aniq ilmiy tushunchani ifodalaydi. Xuddi shunday, o'zbek tilida *anatomya*, *jarrohlik* va *kardiologiya* atamalari mazmun va qo'llanilish jihatidan fransuz terminlariga mos keladi. Bu monosemik terminlar xalqaro tibbiyot tilida standart bo'lib, ularning ma'nosi boshqa tillar bilan qiyoslanganda ham aniqligini yo'qotmaydi. Shuning uchun ular ilmiy kommunikatsiyada asosiy vosita sifatida qabul qilingan. Shuningdek, bu terminlar tarjima jarayonida ma'noni buzmaslik va aniqlikni saqlab qolish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Polisemik terminlar ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega bo'lib, ularning ishlatilishi kontekstga bog'liq ravishda turlicha talqin qilinadi. Bunday atamalar, ayniqsa, tibbiyot va umumiy nutqda murakkabliklarga olib keladi. Polisemik terminlarning ilmiy kommunikatsiyada noto'g'ri tushunilishi diagnostika va davolash jarayonida xatolarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, fransuz tilida *crise* atamasi tibbiy kontekstda "kasallikning o'tkir xuruji"ni anglatgan holda ishlatilsa, umumiy kontekstda "inqiroz" yoki "muammo" ma'nosini ifodalaydi. O'zbek tilida esa *shamol(lash)* so'zi tibbiyotda "sovuq urishi"ni bildirsa-da, boshqa hollarda "tabiatdagi havo oqimi"ni anglatadi. Bu kabi polisemik terminlar tarjima jarayonida noto'g'ri talqin qilinishi xavfini oshiradi va bu holat ilmiy kommunikatsiyada aniq ma'nolarni ta'minlashni qiyinlashtiradi. Quyidagi jadvalda ba'zi polisemik terminlarni sohalardagi ma'nolarini ko'rishimiz mumkin:

			Sohalarda		
№	Termin	Asl ma'nosi	Tibbiyot	Geologiya/Fizika	Ijtimoiy
1	dépression	tushkunlik	ruhiy depressiya	geologik pastlik	iqtisodiy pasayish
2	éruption	toshmalar	yara	vulqon otilishi	portlash
3	injection	in'yeksiya	tanaga suyuqlik yuborish	iqtisodiy investitsiya	ma'lumot kiritish
4	crise	krizis	tibbiy shok	iqtisodiy inqiroz	ijtimoiy notinchlik
5	inflammation	yallig'lanish	tibbiy yallig'lanish	geologik faollik	hissiy qizish
6	occlusion	to'silish	qondagi tiqilish	optik yopilish	matematika bo'limi
7	fracture	sinish	suyak sinishi	yer yuzasi sinishi	ijtimoiy bo'linish
8	saturation	to'yinganlik	qonning kislorod bilan to'yinishi	yer to'yinganligi	rang to'yinganligi
9	tension	tashvish	qon bosimi	texnik zo'riqish	psixologik bosim
10	absorption	singdirish	dori organizmga so'rinishi	iqtisodiy iste'mol	nurlanishning singdirilishi
11	diffusion	tarqalish	tibbiy moddalarning hujayralarga kirishi	texnologik kengayish	madaniy ta'sir
12	contraction	siqilish	mushak qisqarishi	iqtisodiy pasayish	lingvistik qisqarish

Fransuz tilida polisemik terminlarning kelib chiqishi ko'pincha lotin va yunon tillaridan bo'lib, ularning o'zlashuvi keng ko'lamli semantik qirralarni hosil qilgan. Polisemik terminlar bir nechta kontekstda turlicha qo'llanilishi mumkin. Misol uchun, fransuz tilidagi *fièvre* atamasi tibbiyotda "isitma"ni bildirsa, umumiy ma'noda "jo'shqinlik" yoki "hayajon" ma'nosida ishlatilishi mumkin. Bu holat lingvistik boylikni ifodalasa-da, ilmiy ma'noda terminologiyaning bir xil izchillikni saqlash ehtiyojini oshiradi.

O'zbek tilida esa xalqona atamalar ko'pincha polisemik xususiyatga ega. Xalq tabobatidan kelib chiqqan darmon so'zi tibbiyotda "dori" yoki "medikament" ma'nosida ishlatilsa, umumiy til nutqida "kuch" yoki "quvvat" ma'nolarini anglatadi. Bu atamalar tibbiy tilga ilmiy aniqlik bilan moslashtirilgan bo'lsa-da, ularning umumiy nutqda boshqa ma'noda qo'llanilishi tibbiyot kommunikatsiyasida murakkabliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Polisemik terminlarning tarjima jarayonidagi qiyinchiliklari alohida e'tiborga loyiqdir. Bunday terminlarni turli tillarga tarjima qilishda kontekstning o'rni juda muhim. Masalan, fransuz tilidagi *antibiotique* atamasi xalqaro tibbiyotda aniq bir ma'noni ifodalaydi, lekin uning tarjimasi noto'g'ri kontekstda "biologik vosita" yoki "kimyoviy aralashma" sifatida tushunilishi mumkin. Xuddi shunday, o'zbek tilidagi *shamollash* so'zi umumiy ma'noda sovuq urish holatini bildirsa, tibbiyot kontekstida nafas yo'llarining yallig'lanishi sifatida aniq talqin qilinadi.

Fransuz va o'zbek tillaridagi tibbiy terminlarning monosemik va polisemik xususiyatlari lingvistik va semantik tahlillari jihatdan ilmiy ma'lumotlarga boy ekanligini ko'rsatadi. Monosemik terminlar ilmiy aniqlik va universal qo'llanilish xususiyatiga ega bo'lsa, polisemik terminlar ko'p qirraliligi bilan lingvistik xilma-xillikni ta'minlaydi. Biroq, polisemik terminlarning tibbiyot sohasidagi qo'llanilishi ko'pincha kommunikatsion xatoliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, fransuz va o'zbek tibbiyot terminologiyalarida monosemik terminlar xalqaro standartga mos keladi va aniq diagnostika uchun zarur. Biroq polisemik terminlar lingvistik xilma-xillikni namoyon qilib, tarjima va tibbiy kommunikatsiyada qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Fransuz tilida lotin va yunon ildizlariga asoslangan terminlar ilmiy izchillikni ta'minlaydi. O'zbek tili esa arab, fors va rus tillaridan o'zlashtirilgan terminlar orqali milliy xususiyatni saqlab kelmoqda. Shuningdek, polisemik terminlar o'zbek tilida xalqona mazmun bilan to'lib, zamonaviy tibbiyotda ko'pincha cheklolarga duch keladi. Tarjima jarayonida polisemik terminlarni kontekst asosida to'g'ri talqin qilish muhimdir. Bu ikki til o'rtasidagi lingvistik farqlarni yengib o'tishda amaliy yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot fransuz va o'zbek tillaridagi tibbiy terminlarning monosemik va polisemik xususiyatlarini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga olib keldi:

- birinchidan, fransuz va o'zbek tibbiyot terminologiyalarida monosemik terminlar ilmiy aniq tushunchalarni ifodalash uchun asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ular xalqaro standartlarga mos kelib, diagnostika va davolash jarayonida aniqlik va universal tushunishni ta'minlaydi.

- ikkinchidan, polisemik terminlarning ko'p qirraliligi lingvistik boylikni ifodalasa-da, ularning kontekstga bog'liq ma'no o'zgaruvchanligi tibbiy kommunikatsiyada murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Fransuz tilida *fièvre* yoki *crise* kabi terminlar tibbiy va umumiy ma'noda turlicha talqin qilinishi mumkin bo'lsa, o'zbek tilida *shamol* yoki *darmon* so'zlari o'xshash lingvistik murakkablikni ko'rsatadi.

- uchinchidan, fransuz tilidagi tibbiyot terminlari asosan lotin va yunon tillaridan kelib chiqqan bo'lib, ularning semantik aniqligi va izchilligi yuqori darajada saqlanadi. O'zbek tilida esa xalq tabobatidan kirib kelgan xalqona atamalar polisemiklik xususiyatiga ega bo'lib, zamonaviy tibbiyotga moslashtirilgan.

- to'rtinchidan, polisemik terminlar tarjimada noto'g'ri talqin qilinish xavfini oshiradi. Bu jarayonda kontekstning aniqlanishi va terminlarning izchil tarjimasi muhimdir. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun maxsus lug'atlar va terminologik qo'llanmalar yaratish zarur.

Xulosa. Fransuz va o'zbek tibbiyot terminologiyalari monosemik terminlar orqali aniqlikni saqlagan holda, polisemik terminlarning murakkabliklarini yengib o'tish uchun yanada izchil ilmiy va amaliy tadqiqotlarni talab etadi. Bu esa tibbiy aloqalarning samaradorligini oshirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Bloom, Victor. Book Review: Ffrangcon Roberts' Medical Terms: Their Origin and Construction. (1981): 232.
2. Dirckx J.H. Hybrid Words in Medical Terminology. JAMA. 1977;238(19):2043–2045. doi:10.1001/jama.1977.03280200055019.
3. Pascal B. Les mots de la médecine //Paris, Belin. – 1994.
4. Abdusolixiyevich O. T. Polisemiya sug'urta terminologiyasining boyitish manbasi sifatida //Journal of new century innovations. – 2024. – T. 49. – №. 2. – C. 28-32.
5. Ffrangcon Roberts' Medical Terms: Their Origin and Construction ; Print length. 1971, 132 pages ; Language. English ; Publisher. Heinemann ; ISBN-10. 0433191511 ; ISBN-13.
6. Pascal B. Les mots de la médecine //Paris, Belin. – 1994.
7. Qizi L. A., Shahzoda B. Tibbiy terminlarning ahamiyati va qo'llanilishi //Interdiscipline innovation and scientific research conference. – 2024. – T. 3. – №. 26. – C. 18-21.
8. Fayzullayev S. Ingliz tilida tibbiyot terminologiyasining tutgan o'rni //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 364-367.